

UrDPI San'atshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

**Baltayeva Halima To'rabayevna**

[baltayevaxalima@gmail.com](mailto:baltayevaxalima@gmail.com)

UrDPI San'atshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

**Otaxanova Nodira Jumanazarovna**

[nodiraotaxonova1@gmail.com](mailto:nodiraotaxonova1@gmail.com)

---

## **O'ZBEKISTON TASVIRIY VA AMALIY SAN'ATIGA OID ASARLAR ORQALI O'QUVCHILARNI BADIY-IJODIY TASAVVURINI KENGAYTIRISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston tasviriylari va amaliy san'atiga oid asarlar orqali maktab o'quvchilaridagi badiiy-ijodiy tasavvurini kengaytirish va boyitish, tafakkur qilish, fikrini erkin ifoda etish masalalari haqida so'z boradi. Boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilariga san'atni o'rgatishning ilmiy asoslari, shuningdek, o'zbek rassomlarining milliy ruhdagi asarlari ularning o'quvchilarga ta'siri va ahamiyati, amaliy san'atda xalq amaliy bezagi va hunarmandchilik turlari ham qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy ijod, innovatsion shakl, tasavvur, dekorativ tasvir, kolorit, kompozitsiya.

Bu yo'nalishda dastlabki ta'limga tarbiya umumita'limga maktabalaridan boshlanishi kerak. Ta'limga va tarbiyaning aniq tizimini, bu tizimga hamda dars o'tish metodlariga ijodkorning ixtiyoriy ravishda buysunishini, ilmiy asoslangan bilimlarni o'zlashtirishda ilmiylik, metodik izchillik, anqlik va badiiy ijodning amaliyatda sinalgan tajribalarini o'rghanishni nazarda tutish mumkin. Tarixda ijod qilib, o'zlaridan buyuk tasviriylari san'at asarlarini meros qilib qoldirgan mashhur rassomlarning tasviriylari san'at sohasida erishgan tajribalari bugungi kunda uzlusiz ta'limga tizimida, shu bilan birgalikda turli badiiy maktablarda yoyinki umumita'limga maktablarda ham o'quvchilarni tasviriylari san'atdan saboq berishda asos hisoblanadi.

Shuning uchun tasviriylari san'atni o'rghanishni xohlovchi va san'at olamiga endigina kirib kelayotgan bo'lajak rassom eng avvalo bizdan oldingi ijod qilgan rassomlarning durdonasi asarlarini o'rghanib tahlil qilishi va olgan bilimlari hamda ko'nikmalari asosida o'z shaxsiy ijodiy yo'lini tanlab chiqishi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Tasviriylari san'at sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalalariga, hamda ijodiy jihatdan yoshlarni kasbiy tayyorlash masalalarida qadimgi Yevropa Badiiy Akademiyalarining mashhur rassomlari, nazariyotchilaridan Leonardo da Vinci, Mikelanjelo Buanorotti, Peter Paul Rubens, Rafael Santi, Albert Durer va boshqalarning ilmiy va ijodiy asarlarini misol keltirish mumkin. Rus tasviriylari san'at namoyandalaridan 19-20 asrda ijod qilgan I.Ye.Repin, N.Savrasov, P.Chistyakov, K.P.Bryullov, O.A.Kiprenskiy larning ijodiy ishlarni keltirish mumkin. XVII asrda akademik rasm chizishning nazariy qoidalari Uyg'onish davri rassomlarning talqinlari dayoq ifoda etila boshlangan. XVIII asrda yuzaga kelgan sur'atga akademik o'qitish nazariyasi ma'lum o'zgartirishlar kiritilib, endi badiiy amaliyat yangi sharoitlarida amalga oshirildi. XIX asrda akademik rasm nazariyasi va amaliyatida o'quv masalalarini kompleks hal etish bo'yicha faol izlanishlar boshlangan. Badiiy akademik mablag' yo'nalishida o'quvchilarni faqatgina bilim va ko'nikmalar bilangina qurollantirish emas, balki ijodiy faoliyatda ham ishtiroy ettiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriylari san'at namunalari asosida ijodkorlikni shakllantirishda ta'limga mazmuniga monand va muvofiq bo'lgan innovatsion shakl, vosita va metodlarni tanlash, ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish juda muhimdir. Bugungi kunda ko'pchilik pedagog olimlarning ta'kidlashiga ko'ra, ta'limga jarayonining bosh maqsadi bolani bilimlar bilan to'yintirishgina emas, balki, avvalo, bola tasavvurlari, xulosalari, kuzatuvchanligi, o'ylari, tasavvur olami, atrof-muhitni anglashida to'g'ri qarorlar qabul qilishini rivojlantirish va ta'minlashdan iboratdir. Ya'ni bolani hayotda to'laqonli ravishda qarorlar qabul qilishini rivojlantirish va ta'minlashdan iboratdir. Aynan o'zi mustaqil har turli sharoitlarda qarorlar

qabul qilishga o'rgatilgan shaxs hayotning turli vaziyatlarida yashashga tayyor shaxs sifatida baholanmoqda. Mazkur malakalarning ichida esa shaxs ijodkorligiga alohida urg'u berilmoqda. Chunki aynan ijodkorlik shakllantirilgan shaxs yangi tovarlar, mahsulotlar, innovatsiyalarni yaratishga moyil shaxsdir. Ijodkor shaxsnинг qo'lidan turli qiyin vaziyatlarda uning yechimlarini nostandard yo'llar bilan topish keladi. Buning uchun esa boshlang'ich ta'limda bola ijodiyligini shakllantirish taqozo etiladi. Shunga ko'ra, tasviri san'at darslarida bola ijodkorligini rivojlantirish yaxshi samaralar beradi. Chunki tasviri san'at jarayonlari bilan shug'ullanish, zarur ko'nikmalarni shakllantirish boladan juda katta samimiylit, ijodkorlik, o'ylash, fikr qilish, o'z o'ylari va fantaziyalarini real qilib tasvirlash, ya'ni qog'ozga tushirish bo'yicha malakalarini talab etadi. Tasviri san'at namunalari asosida boshlang'ich sinflarda o'quvchi ijodkorligini shakllantirishda qanday innovatsion shakl, vosita va metodlar qo'llash zarurligi masalasi ilmiy o'r ganilganda tadqiqot doirasida quyidagi usul, vosita va yo'llar samarali ekanligi aniqlandi.

Katta yoshdagi bolalarning tasavvurlari kichik mакtabgacha yoshdagи bolalarnikiga qaraganda ko'proq uyushgan va maqsadga yo'naltirilgандир. Bu hayot tajribasi, bilimlarning bosqichma-bosqich to'planishi va o'yin, vizual va konstruktiv faoliyatning sezilarli darajada kengayishi bilan bog'liq. O'yin, rasm chizish, konstruktiv va qurilish faoliyati bolalarning tasavvurini rivojlantirishning samarali vositasidir.

Boshlang'ich mакtab yoshi tasavvurning faollashishi bilan tafsiflandi, birinchi navbat borliqni his qiladi, keyin esa ijodiy fikrlay boshlaydi. Bu tasavvurni shakllantirish uchun sezgir davr hisbolanadi. Uning rivojlanishidagi asosiy yo'naliш - tasavvurning ongli niyatlarga bo'ysunishi, ya'ni, mustaqil faoliyat bilan bo'ladi.

Mavzuli va dekorativ rasm o'quvchilarning tasavvurini rivojlantirishga ko'proq yordam beradi.

Rasm chizish asosan reproduktiv tasavvurni rivojlantiradi, chunki bolalar odatda sinfda xalq rassomlarining har xil asarlarini (Shishkin. Levitan. Mane, Pikkasso va boshqalar) o'r ganadilar va ularni qayta yaratadilar. Ammo, shunga qaramay, ijodiy tasavvurni talab qiladigan vazifalar mavjud (masalan, aplikatsiya, bezak chizish va boshqalar).

Mavzuli rasm, bizning fikrimizcha, ijodiy tasavvurni rivojlantirishga ko'proq hissa qo'shadi. Mavzuli rasm chizishda bola ham badiiy, ham ijodiy qobiliyatlarni namoyon qiladi.

Tasviri san'at o'qitish metodikasi nuqtai nazaridan darslarni maxsus tashkil etish orqali ijodiy tasavvurni rivojlantirish mumkin.

Bola tasavvurining har qanday mahsuloti haqiqatdan olingan va uning tajribasida mustahkamlangan faktlar, kuzatishlarga asoslanadi. Kuzatishlar fondi qanchalik ko'p bo'lsa, uning hissiy tajribasi qanchalik keng bo'lsa, taassurotlari va tajribalari qanchalik xilma-xil bo'lsa, uni tasavvur faoliyatida qo'llash imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Turli taassurotlarni toplash, muayyan darsda kuzatishni rivojlantirish tasavvurni rivojlantirishning zaruriy shartidir.

Bolalarning ijodiy faoliyati to'g'ridan-to'g'ri diqqatga bog'liq bo'lib, e'tibor tanlab olinadi: odam bir narsani sezadi va boshqasini sezmaydi. Shuning uchun u qanday qadriyatlarga qaratilganligi juda muhimdir. Biz ko'pincha juda yosh bolalarning kuzatish qobiliyatlari bilan hayratda qolamiz. Keyin ko'pchilik uchun u o'tib ketadi, lekin kuzatish nafaqat tafakkur, u fan va san'atning asosidir, shuning uchun kuzatishni o'rgatish kerak, uni rivojlantirish kerak. Agar bu doimiy ravishda amalga oshirilsa, keyinchalik bolaning o'zi kuzatuvchan bo'lishni o'r ganadi. Bu nafaqat ijodiy faoliyatda, balki hayotda ham juda muhimdir. Odamni sezishga o'rgatish oson emas. Yig'ilgan taassurotlar hayoliy fikrlashni, tasavvurni rivojlantiradi va bolaning ichki dunyosini boyitadi. Hayotni keng ko'ra bilish, uning ko'p jihatlari bilan insonga hayotning to'liqligini his qiladi.

Biroq, ijodiy mahsulotni yaratish uchun to‘plangan tajribadan o‘z vaqtida foydalanish qobiliyati ham kerak. Bu qobiliyat turli bolalarda turlicha rivojlanadi. O‘quvchilarning hissiy tajribasini har tomonlama kengaytirish va uni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish kerak.

Bolalar tasavvurining eng muhim manbai hissiyotlardir. Tuyg‘ular har doim ma’lum tasvirlarda gavdalanishga intiladi. Avvalo, o‘quvchilarda topshiriqga hissiy munosabatni uyg‘otish, keyin ularni tashqi aralashuvdan va o‘z aralashuvidan himoya qilish kerak.

Tasviriy san’at darsidagi ijodiy ish bola va kattalar o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘lovchi aloqadir. Ijodiy tasavvur faoliyati deyarli hech qachon o‘qituvchining yordami va ishtirokisiz sodir bo‘lmaydi. Biroq, o‘qituvchining roli o‘qitish emas, balki bolalar o‘z ijodiy ishlari uchun g‘oyalarni yaratishi va amalga oshirishi uchun bolalar bilan birgalikda dars qurishdir.

Ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun nafaqat tasavvur va haqiqat o‘rtasidagi bog‘liqlikning turli shakllari orqali bolalarning tasavvurini boshlash, balki bolalar o‘z rasmlari g‘oyalarni yaratish va amalga oshirishda darsning ma’lum bir qismini tashkil qilish kerak.

O‘quvchilarni atrof muhitni asrashga, yoyinki Vatanni sevishga undaydigan asarlar bilan tanishtirish kerak. O‘zbek manzarachi rassomlarning esa bunda ahamiyati katta. Ularning ijodida yurtni go‘zalligi, unga muhabbatni va e’tiborini anglash qiyin emas. Jumladan, O‘rol Tansiqboyevning asarlari gapimizga misol bo‘ladi. O‘rol Tansoqboyev ijodining erta pallalaridagi ijod namunalardan uning atrof-muhitga bo‘lgan muhabbatini payqash mumkin, shu bilan birga, o‘tmishga nisbatan hech qanday zavq, hech bir uslubchilik sezilmaydi. Ona yurtning umumlashma badiiy obrazini yaratish yo‘lidagi izlanishlari samarasini sifatida bir qancha asarlari yuzaga keltirgan (“Jonajon o‘lka”, 1951; “Issiqko‘lda oqshom”, 1951; “Tog‘dagi yaylov”, 1953; “Tog‘da kuz”, 1954 va boshqalar), ular orasida industrial manzaralar ham uchraydi (“Qayroqqum GESi tongi”, 1957 va boshqalar). “Tog‘dagi qishloq”, “Oqshom” (1962), “Angren — Qo‘qon yo‘li” (1962), “Chorvoq qurilishida” (1970), “Mirzacho‘l kanali” (1971) kabi liroepik asarlarida O‘zbekistonning tabiatini hamda inson mehnati tufayli o‘zgarib borayotgan qiyofasi o‘z aksini topgan. O‘quvchilarda milliy qadriyatlarimizga va mentalitetimizga hurmat ruhida tarbiyalash uchun o‘zbek rassomlarining kompozitsiyalarini namuna qilib ko‘rsatish mumkin. Shu jumladan, O‘zbekiston xalq rassomi Rahim Ahmedovning “Tong. Onalik”, “Qo‘sish”, “Ona o‘ylari”, “Cho‘pon yigit”, “Dehqon” kabi yaratgan san’at asarlarini kuzatib turgan har bir inson milliylik ruhini his qiladi bu esa rassomning mahoratiga bog‘liq. Bunday san’at durdonalari talaba yoshlarni tasviriy san’atga qiziqishlarini san’atga bo‘lgan muhabbatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi desam adashmagan bo‘lamiz. Chinakam mahorat maktabi san’at milliylikka asoslanadi, ayni paytda ezgulik, ollyjanoblik, do’stlik, hamjihatlik, ma’naviy yetuklik kabi umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib etadi. Yurtimizga chetdan kirib kelayotgan barcha asarni ham san’at deb qabul qilish noto‘g‘ri. Bugungi globallashuv jarayonida davrida yoshlarni oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlay olishga o‘rgatish zimmamizdagi asosiy vazifalardandir.

O‘zbek tasviriy san’ati Chingiz Ahmarov, O‘rol Tansiqboyev, Rahim Ahmedov, Ne’mat Qo‘ziboyev, Mannon Saidov, Baxtiyor Boboyev, Ro‘zi Choriyev, Abdulhaq Abdullayev singari nomdor rassomlar asos solgan katta mahorat maktabiga ega. Bu ma’naviy merosni o‘rganish, mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish muhim va zarur jarayondir. Ayni paytda Badiiy akademiya akademigi maqomiga ega bo‘lgan ijodkorlar orasida rangtasvirchilar, grafiklar, haykaltaroshlar, madaniyatimizning zabardast namoyandalari bo‘lgan ustalar, san’atshunoslar bor. Bular esa yoshlarni tasviriy san’atga qiziqishlarini orttirishda va yo‘naltirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Rustam Xudayberganov, Bahodir Jalolov, Akmal Ikromjonov, Alisher Mirzayev o‘z asarlarida hayot voqeligini ko‘tarinki ruhda, turfa rang hamda shakllarda ifodalashi bilan ajralib tursa, Samig‘ Abdullayev O‘rta asrlar Sharq madaniyati shakl-shamoyilini asarlariga singdirishga harakat qiladi. Javlon Umarbekovning ijodida esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yangidan-yangi qirralari yorqin aks ettiriladi. Bunday san’at asarlari ma’naviy ozuqa bo‘libgina qolmay yoshlarni vatanga bo‘lgan, tasviriy san’atga bo‘lgan mehr muhabbatlarini yanada oshiradi. Tasviriy san’atning ana shunday go‘zal o‘rnii qatorida amaliy san’atning ham o‘rnii va ahamiyati katta. Ustozdan shogirdga, otadan o‘g‘ilga

o‘tib kelayotgan milliy hunarmandchilik san’atimiz dunyo e’tirofiga sazovor bo‘lgan. Xalq amaliy san’ati ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, zargarlik, zardo‘zlik, kulolchilik, naqqoshlik kabi turlari o‘ziga xosdir. Ularda ishlataladigan ranglar kompozitsiyasi, shakllar ritmikasi va simfoniyasi bolalarga juda qiziqarli. Kishilarga ma’naviy ta’sir qilishda xalq amaliy san’ati muhim afzalliklarga ega. Shu boisdan maktablarda o‘qitilayotgan tasviriy san’at darslarida amaliy san’atni ham o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baltayeva Xalima Torabayevna// Tasviriy san’at darslarida natyurmort janrini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi// Vol.14 №4 (2024) 4- to‘plam 85-90.
2. Sultanova G.O., Baltayeva X.T. Xorazm ganch o‘ymakorligi san’ati //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 756-761.
3. Балтаева Х. Т. талабаларни эстетик тарбиялаш ва касбий тайёrlашда декоратив-амалий санъатнинг ўрни //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 62-65.
4. Балтаева Х. Т. Tasviriy san’at ўқитувчисининг ўқувчилар таълим-тарбиясидаги ўрни //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 66-69.
5. Jumanazarovna, O. N. (2023). O‘zbekiston tasviriy san’atida tarixiy janrda yaratilgan asarlar orqali talabalarning badiiy tasavvurlarini o‘stirish. PEDAGOGS jurnali, 33(2), 137-144.
6. Ibadullayeva, N. E., Ibadullayev, S. E., & Otaxanova, N. J. (2022). Tasviriy va amaliy san’at bo‘yicha tashkil etiladigan togaraklarda o‘quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga yo‘naltirish va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yishning uslubiy jihatlari. In Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования (pp. 65-69).
7. Quvondiq Shonazarovich Ro‘zmetov & Nigora Egamberganovna Ibadullayeva (2023). Xiva naqqoshlik san’ati uslubining o‘ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 4 (2), 22-30.
8. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san’atning fanlararo aloqalar tizimidagi o‘rni. Pedagogs Jurnali, 31(1), 142–148.